

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NURALIYEV SHUXRAT BAXTIYOROVICH

**ANTRATSEN VA UNING HOSILALARI ASOSIDA BIOLOGIK
FAOL MODDALAR OLISH TEXNOLOGIYASI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nuraliyev Shuxrat Baxtiyorovich

Antratsen va uning hosilalari asosida biologik faol moddalar
olish texnologiyasi3

Нуралиев Шухрат Бахтиёрович

Технология получения биологически активных веществ
на основе антрацена и его производных21

Nuraliyev Shukhrat Bakhtiyorovich

Technology for obtaining biologically active substances based
on anthracene and its derivatives.....41

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Spisok o'publikovanniy rabot
List of published works44

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NURALIYEV SHUXRAT BAXTIYOROVICH

**ANTRATSEN VA UNING HOSILALARI ASOSIDA BIOLOGIK
FAOL MODDALAR OLISH TEXNOLOGIYASI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/K957 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-kimyo.nuuz.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Nurmanov Suvonqul Erxonovich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Mirxamitova Dilorom Xudayberdiyevna kimyo fanlari doktori, professor Ziyodullayev Anvar Egamberdiyevich kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zR FA Umumiy va noorganika kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99824)246-53-21; 246-02-24. e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99824)246-53-21; 246-02-24; e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____dagi №___raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A.Smanova

Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

N.X.Qutlimurotova

Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash
kotibi, k.f.d., professor

A.K.Abdushukurov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda uglevodorodlar pirolizi orqali olefinlar: etilen, propilen, buten, butadien kabi organik sintez xomashyolarini olishga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayonda olefinlar bilan birgalikda qo‘shimcha ikkilamchi mahsulotlar ham hosil bo‘ladi. Ikkilamchi mahsulotlar tarkibi, asosan, aromatik birikmalardan tashkil topgan bo‘lib, ular biologik faol moddalar sintezi uchun asos hisoblanadi. Shu sababli, oziq-ovqat qo‘shimchalari, biologik faol moddalar: dori vositalar, pestitsidlarni ikkilamchi mahsulotlar asosida olish va modifikatsiya qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda biologik faol preparatlarni chiqindi xomashyolari asosida olish hamda pestitsidlik xususiyatlarga ega preparatlarni yaratish, qishloq xo‘jaligida qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Qayd etish kerakki, antratsen va uning birikmalari, asosan, bo‘yoqlar, lyuminessent kabi mahsulotlar olish uchun qo‘llanilib kelinmoqda. Lekin antratsen va uning hosilalari biologik faol xossaga ega ekanligi ushbu birikmalarni kimyoviy modifikatsiyalash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, antratsen hosilalarining ko‘p tomonlama reaksiyon qobiliyati tufayli organik sintez sohasida keng qo‘llanilishi muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Respublikamizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar rejasiga ikkilamchi mahsulotlardan foydalanib import o‘rnini bosuvchi yangi turdagi kimyoviy mahsulotlar sintez qilishning zamonaviy usullari va texnologiyalarni ishlab chiqish davlat dasturlariga kiritilishi ham jarayon dolzabligidan dalolat beradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish” vazifalari belgilab berilgan¹. Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda ikkilamchi mahsulotlar tarkibidan ajratilgan moddalar asosida biologik faol moddalar sintez qilish va texnologik sxemalarni yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktyabrdagi PQ-388-son “Kimyo va gaz-kimyano sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 15-iyuldagi PQ-3983-son “Respublikada o‘simliklar karantini va himoya tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3979-son “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror taminlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda chiqarilgan PF-60-son farmoni.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nonotexnologiyalar” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Xorijda piroliz jarayonining ikkilamchi mahsulotlari tarkibini tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish boʻyicha S.N.Lakeyev, A.B.Rakov, M.A.Lebedova, F.M.Sadigov, A.D.Berens kabi olimlar ilmiy ishlarida tarkibini toʻliq oʻrgangan. Z.Yu.Magerramova, F.M.Sadigov, I.A.Guseynov, G.N.Gadjiyev, A.B.Rakov, N.I.Gaydarlilarning ilmiy ishlarida tar-mahsuloti tarkibida koʻp miqdorda uchraydigan antratsenni ajratib olish metodlari keltirilgan. Ushbu olimlarning taqdiqot ishlari piroliz jarayonining ikkilamchi xomashyolarini qayta ishlashga qaratilgan.

Respublikamizda piroliz jarayoni ikkilamchi mahsulotlari tarkibini oʻrganish boʻyicha A.Ikramov, A.Jalilov, H.E.Qodirovlar ishlarini keltirish mumkin. Ular tomonidan ikkilamchi mahsulotlar: piroliz moyi va tar-mahsulotidan naftalin, inden, antratsen ajratilib, ular asosida biologik faol moddalar, kationitlar olish ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu borada piroliz jarayoni ikkilamchi tar-mahsuloti tarkibidagi antratsen va uning hosilalari asosida import oʻrnini bosuvchi biologik faol moddalar olish texnologiyalarini yaratish alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining AM-FZ-2019081449 “Sanoat ikkilamchi xomashyosi asosida yangi turdagi kationit olish texnologiyasini ishlab chiqish” (2022-2024-yy.) mavzusidagi amaliy va FL-7923051904 “Vinil birikmalar olish uchun nanooʻlchamli katalizatorlar va ularning tashuvchilari sintezi, tuzilishi, elektron xossalari” (2024-2025-yy.) mavzuli fundamental loyihalar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi tar-mahsulot tarkibidagi antratsen va uning hosilalari asosida biologik faol moddalar olish, qishloq xoʻjaligida foydalanish uchun biologik faolligini aniqlash, sintez qilish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tabiiy gazni piroliz qilishda hosil boʻladigan tar-mahsulotidan antratsen va uning hosilalarini ajratib olishning samarali usullarini ishlab chiqish;

sivush moyini izobutil, izoamil spirtlari saqlagan fraksiyasini ajratib olib va uni tozalash jarayonini amalga oshirish;

olingan antratsen hosilalarini nitrat kislota yordamida oksidlab antratsen karbon kislotalarni sintezini amalga oshirish, mahsulot unumiga harorat, reaksiya davomiyligi, katalizator tabiati hamda nitrat kislota konsentratsiyasi taʼsirlarini aniqlash, jarayonning maqbul sharoitlarni topish;

antratsen karbon kislotalarini spirtlar bilan eterfikatsiyalash, antratsen va qoʻrgʻoshin (IV)- atsetat ishrokida antratsen-9-il atsetat sintezini maqbul sharoitlarni aniqlash;

qoʻllanilgan birikmalarni kvant-kimyoviy hisoblashlarini amalga oshirish, tajriba natijalarini matematik qayta ishlash, zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida sintez qilingan birikmalarning tuzilishini asoslash;

antratsen karbon kislota efirlarini biologik faolligini aniqlash, sintez qilish texnologiyasini ishlab chiqish va qishloq xo'jaligida foydalanish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ikkilamchi mahsulot, "tar-mahsuloti", sivush moyi, antratsen, 2- va 9-metilantratsenlar, nitrat kislota, qo'rg'oshin (IV)- atsetat olingan.

Tadqiqotning predmeti tar-mahsulotidan olingan antratsen hosilalari asosida qishloq xo'jaligida qo'llash uchun biologik faol moddalar sintez qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida fraksion haydash, moddalarni tozalash usullari, oksidlanish, etirifikatsiyalash reaksiyalari, IQ-, ^1H - va ^{13}C -YaMR spektroskopiya, xromoto-mass spektrometriya usullari, kvant-kimyoviy hisoblash hamda matematik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

piroliz jarayoni ikkilamchi tar-mahsuloti tarkibi aniqlangan, suyuqlanish va erituvchilarda erish xususiyatiga ko'ra, qayta kristallab antratsen 17,7 %, 9-metilantratsen 3,56 %, 2-metilantratsen 3,1 % ajratib olingan;

ilk bor 2-metilantratsen va 9-metilantratsenni karbon kislota gacha oksidlash reaksiyalarida nitrat kislota qo'llanilgan;

tar-mahsulotdan ajratib olingan antratsen bilan qo'rg'oshin (IV)- atsetat ishtrokida antratsen-9-il atsetat sintez qilish usuli ishlab chiqilgan va reaksiyaning mexanizmi taklif etilgan;

antratsen va qo'rg'oshin (IV)- atsetat ishtrokida antratsen-9-il atsetat olish texnologiyasi yaratilgan hamda mahsulotning mahalliy lashtirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Tadqiqot amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

piroliz jaryoni ikkilamchi mahsulotidan antratsen va uning hosilalarini ajralish harorati 335-360 °C ekanligi aniqlangan;

2- va 9-metilantratsenlar 30 %li nitrat kislota ishtirokida harorat 120 °C da 1,5 soat davomida oksidlanib antratsen karbon kislotalar hosil bo'lishi asoslangan;

antratsen qo'rg'oshin (IV)- atsetat ishtirokida reaksiya davomiyligi 4 soat, harorat 70 °C da CH_3CN va CH_3COOH erituvchilari yordamida oksidlanib antratsen-9-il atsetat sintez qilish ishlab chiqilgan;

sintez qilingan antratsen karbon kislota efirlari omborxonada uzunburuni (*Sitophilus granarius*)ga qarshi amalda foydalanilayotgan karate, spirmetrin kabi preparatlar bilan biologik faolligi mos kelishi aniqlangan;

tar-mahsuloti asosida biologik faol moddalar olish texnologiyalari ishlab chiqilgan, jarayonning material balansi, iqtisodiy samaradorligi hisoblangan va texnologik reglamentlari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ilmiy ishda sintez qilingan mahsulotlar zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari: IQ-, ^1H - va ^{13}C -YaMR spektroskopiyasi, xromoto-mass spektrometriya usullari, kvant-kimyoviy hisoblash hamda matematik qayta ishlash usullaridan foydalanib tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tar-mahsulotidan atmosfera bosimida fraksion haydab ajratib olingan 2- va 9-metilantratsenlarni nitrat kislota bilan oksidlab 2- va 9-antratsen karbon kislotalar, ular asosida biologik faol moddalar sintez qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati antratsen karbon kislota efirlarni olish texnologiyasini ishlab chiqilganligi va qishloq xo'jaligida omborxonalar uzunburuni (*Sitophilus granarius*)ga qarshi biologik faol moddalar sintez qilinganligi, jarayonning texnologik reglamenti ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uglevodorodlar pirolizi jarayoni ikkilamchi mahsuloti hisoblangan tar-mahsulotidan ajratib olingan antratsen va uning hosilalaridan sintez qilingan efirlar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sintez qilingan metil antratsen-2-karboksilat, metil antratsen-9-karboksilat, antratsen-9-il atsetat efirlari biologik faol modda sifatida "Norin klaster don" MCHJ va "Max Izmailov" MCHJ da amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi o'simliklar karantini va himoyasi agentligining 2024-yil 1-avgustdagi 2-8/3276-son ma'lumotnomasi). Natijada ombor uzunburuni *Sitophilus granarius* zararkunandasining 90-93 % nobud bo'lishiga va import preparatini mahalliyashtirish imkonini bergan;

olingan metil antratsen-2-karboksilat, metil antratsen-9-karboksilat, antratsen-9-il atsetat efirlari biologik faol modda sifatida "Elektrkimyozavodi" QK AJ da amaliyotga joriy qilingan ("Elektrkimyozavodi" QK aksiyadorlik jamiyati 2024-yil 17-iyulgadi № 76-son ma'lumotnomasi). Natijada qo'shma korxonasining 2025-2027-yillardagi pestitsidlar ishlab chiqarish istiqbolli rejalariga kiritishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 6 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3ta respublika, 2 ta maqola xorijiy (1 ta skopus bazasidagi) jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Kompyuter matnida yozilgan dissertatsiya ishining hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi keltirilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, obyekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishiga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish ro'yxati keltirilgan, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ulevodorodlar pirolizi jarayoni mahsulotlari va ular asosidagi materiallar”** deb nomlangan birinchi bobida ulevodorodlar piroliz jarayonlari, qurulma turlari, xomashyo tarkibi, harorat, hosil bo'ladigan mahsulotlar samaradorligi keltirilgan. Piroliz jarayonida sodir bo'ladigan reaksiyalarlarning turlari (birlamchi va ikkilamchi reaksiyalar), mexanizmi (radikal- zanjirli mexanizm), piroliz natijasida hosil bo'luvchi ikkilamchi mahsulotlar: piroliz distillati, piroliz moyi, tar-mahsulotlar tarkibi, ulardan kondensirlangan ulevodorodlar va ularning hosilalarini ajratib olish usullari yoritilgan.

Spirt ishlab chiqarish ikkilamchi mahsuloti hisoblangan sivush moyi tarkibi, undan alifatik spirtlarni ajratib olish usullari keltirilgan.

Biologik faol moddalar olish usullari, qo'llanilishiga oid adabiyotlar tahlil qilingan. Ushbu umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ular asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Anratsen va uning hosilalari efirlari sintezi metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Uz-Kor Gas Chemical” QK MChJ ga qarashli Ustyurt gaz-kimyoy majmuasining ulevodorodlar pirolizi ikkilamchi tar-mahsuloti tarkibi va xossalari o'rganildi, undan anratsen va uning hosilalarini ajratib olish usullari, anratsen hosilalarini oksidlash, anratsen karbon kislota efirlarini sintez qilish, sivush moyi tarkibi, undan alifatik spirtlarni ajratib olish metodikalari va sintez qilingan moddalarni fizik-kimyoviy tahlil qilish usullari batafsil yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Anratsen karbon kislotalar murakkab efirlari sintezi”** deb nomlangan uchunchi bobida tar-mahsulotidan ajratib olingan 2-, 9-metilanratsenlarni nitrat kislota bilan oksidlash natijasida anratsen karbon kislota sintezi qilindi. Olingan 2-, 9- anratsen karbon kislotalar va alifatik spirtlar asosida murakkab efirlar sintez qilish uchun optimal sharoitlar aniqlandi. Sintez qilingan moddalarning tuzilishi, tarkibi va xossalari IQ-, ¹H-, ¹³C-YaMR spektroskopiya usullaridan foydalanilgan holda aniqlandi.

“Uz-Kor Gas Chemical” MChJ ga qarashli Ustyurt gaz-kimyoy majmuasi yiliga 387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna polipropilen va ikkilamchi mahsulotlar 102 ming tonna piroliz distillati, 8 ming tonna piroliz moyi, 10 ming tonna tar-mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan. Bu ikkilamchi mahsulotlar majmuada qayta ishlanmaydi va arzon narxlarda, sifatsiz yoqilg'i, bug' qozon yoqilg'isi sifatida qo'llaniladi.

Tar-mahsuloti – qora-qo‘ng‘ir rangli, shishasimon, biroz mo‘rt, qattiq massa. Tar-mahsulotining ba‘zi fizikaviy xossalari o‘rganildi, 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

Tar-mahsulotining fizikaviy xossalari

Xossalari	Ko‘rsatkichlar
20 °C dagi zichligi (g/sm ³)	1,83
Qovushqoqligi, 60 °C (mm ² /s)	57
Suyuqlanish harorati, °C	60-70
Qaynash harorati, °C	270-280
Suv miqdori (%)	0,2
Kokslanishi, (%)	54
Kullik darajasi, (%)	2,7
Element tarkibi,% massa bo‘yicha.	
C	93,1
H	6,2
Boshqa moddalar	0,14

Tar-mahsulot tarbibidan anratsen va ularning gomologlarini ajratib olish maqsadida, maxsus zanglamaydigan polatdan yasalgan qurilmada, atmosfera bosimida, harorat 290-360 °C da 10 kg tar-mahsulotdan 6-7,2 l atrofida suyuq fraksiyasi ajratib olindi. Ajratib olingan fraksiya: qoramtir, to‘q jigarrang rangli, yoqimsiz hidli, xona haroratida kristallar hosil qilmaydigan suyuqlik.

Tar-mahsulotidan ajratib olingan fraksiyaning tarkibi, xossalarini chuqurroq tadqiq etish maqsadida, namunadan xromoto-mass spektr analizi olindi va olingan natijalar tahlil qilindi (2-jadval).

2-Jadval

Tar-mahsulotni atmosfera bosimida haydash natijalari


№	Modda nomi	Chiqish vaqti, (min)	Komponent ning ulushi, (%)	Suyuqlanish harorati, °C
1	fluoren	13,63	2,17	114-116
2	9-metilfloren	14,95	2,86	90-92
3	fenantren	15,82	38,64	99-101
4	2-metilfenantren	15,94	3,42	56-58
5	4-metilfenantren	16,71	1,02	53-55
6	3-metilfenantren	17,01	1,4	52-64
7	2-metilantratsen	17,07	3,59	204-205
8	anratsen	17,19	18,6	215-218
9	9-metilantratsen	17,26	3,92	77-79
10	1-metilantratsen	17,30	2,09	85-87
11	1,2-benzendikarbon kislota	22,70	7,46	206-208
12	aniqlanmagan mahsulot	>22,70	9,25	

Tar-mahsulotidan olingan 290-360 °C dagi namunasining qaynash haroratiga ko'ra, atmosfera bosimida 2 qismga, ya'ni 290-330, 335-360 °C oralig'idagi fraksiyalarga ajratildi. Birinchi fraksiyadan anratsen, ikkinchisidan 2-, 9-metilanratsenlar erituvchilarda qayta kristallanib tozalab olindi.

Anratsen ¹H-YaMR spektri olindi va tahlil qilindi. ¹H-YaMR spektri tahlil qilinganda 8.42 (s, 2H) 9- va 10- vodorod protonlari, 8.009-7.993 (dd, J = 9.29, 2.62 Hz, 4H) 1-, 8- va 4-, 5- vodorod protonlari, 7.450- 7.466 (m = 9.30 Hz, 4H) 2-, 7- va 3-, 6- vodorod protonlari hos signallar kuzatildi.

9-Metilanratsen ¹H-YaMR spektri tahlili shuni ko'rsatdiki, 8.34 (s = 2.19 Hz, 1H) 10- vodorod protoni, 7.98 – 7.91 (d, 4H) 1-, 8- va 4-, 5- vodorod protonlari, 7.54 – 7.47 (m, 4H) 2-, 7- va 3-, 6- vodorod protonlari, 3.09 (s, 3H) metil guruhi vodorod protonlariga hos signallar namoyon bo'ldi.

2- va 9-Metilanratsenlar harorat 120°C da, reaksiya davomiyligi 1,5 soat, oksidlovchi reagent sifatida 30 %li HNO₃ va havo kislorodi, erituvchi sirka kislota (CH₃COOH) ishtrokida oksidlab 2- va 9-anratsen karbon kislotalari sintezi amalga oshirildi, jarayon uchun optimal sharoitlar o'rganildi.



2- va 9- Metilanratsenlarni oksidlab anratsen karbon kislotalari siztezigga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Reaksiya unumiga haroratning ta'sirini o'rganish uchun jarayon 100-130 °C da olib borildi va harorat 120 °C da eng optimal natijaga erishish aniqlandi, tajriba natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-Jadval

2- va 9-Anratsen karbon kislota sintezi unumiga harorat hamda reaksiya davomiyligini ta'siri

Harorat, °C	Reaksiya davomiyligi, soat	Mahsulot unumi, %	
		9-AKK	2-AKK
100	0,5	26,3	19,2
	1	30,5	26,4
	1,5	38,1	32,6
	2	40,4	37,5
110	0,5	32,6	25,7
	1	38,2	31,3
	1,5	42,4	37,1
	2	51,9	43,4
120	0,5	49,0	45,3
	1	63,9	57,9
	1,5	72,1	70,5
	2	70,3	69,2
130	0,5	51,3	48,8
	1	59,1	46,4
	1,5	63,2	41,2
	2	60,8	39,7

Antratsen karbon kislotalari unumiga 20-40 %li nitrat kislota eritmalarida tajribalar o‘tkazildi. Jarayon uchun 30 %li HNO₃ konsentratsiyasi eng optimal deb topildi (4-jadval).


4-Jadval

2- va 9-Antratsen karbon kislota sinteziga nitrat kislota konsentratsiyasi hamda harorat ta’siri (reaksiya vaqti 1,5 soat)

Harorat, °C	Nitrat kislota konsentratsiyasi, %	Mahsulot unumi, %	
		9-AKK	2-AKK
110	20	32,4	26,3
	30	42,4	36,2
	40	46,3	40,6
120	20	52,4	47,8
	30	72,1	70,5
	40	60,1	58,1
130	20	58,6	50,3
	30	63,2	56,5
	40	46,3	37,3

Olingan 2- va 9-antratsen karbon kislotalarning ¹H-YaMR spektri olindi va tahlil qilindi. 9-antratsen karbon kislota ¹H-YaMR spektri tahlili shuni ko‘rsatdiki, 11.52 (s, 1H) OH- guruhi vodorod protoni, 8.97 (dd, *J* = 7.51, 1.35 Hz, 2H) 1- va 8- vodorod protonlari, 8.67 (s, *J* = 2.21 Hz, 1H) 10- vodorod protonlari, 8.07 – 8.03 (d, 2H) 4- va 5- vodorod protonlari, 7.65 (m, *J* = 7.47, 1.18 Hz, 2H) 2- va 7- vodorod protonlari, 7.52 (m, *J* = 7.43, 1.25 Hz, 2H) 3- va 6- vodorod protonlariga xos signallar namoyon bo‘lishi isbotlandi.

Antratsen karbon kislotalarini murakkab efirlarini olish maqsadida, sulfat kislota katalizatori ishtirokida toza metil, etil va sivush moyidan ajratilgan alifatik: izopropil, izobutil, izoamil spirtlar bilan eterifikatsiya reaksiyalari o‘tkazildi. Jarayon uchun eng maqbul sharoitlar o‘rganildi.



metil antratsen-9 va 2-karboksilat efirlari sintezi jarayoniga harorat va reaksiya davomiyligi davri shuni ko‘rsatadiki, harorat 50-70 °C ko‘tarilganda mahsulot unumi 39,6 %dan 74,8 %ga oshdi, ammo harorat 80 °C ga ko‘tarilganda salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Reaksiya vaqti 4 soat hamda harorat 70 °C da eng qulay sharoit ekanligi aniqlandi (5-jadval).


**Metil antratsen-9 va 2-karboksilat effirlari sintezi unumiga
harorat hamda reaksiya davomiyligini ta'siri**

Harorat, °C	Reaksiya davomiyligi, soat	Mahsulot unumi, %	
		9-AKME	2-AKME
50	1	39,6	40,7
	2	45,1	46,2
	3	52,3	52,6
	4	58,9	59,0
	5	61,2	62,6
60	1	45,3	45,9
	2	51,9	52,3
	3	57,1	58,0
	4	63,7	64,2
	5	68,4	70,2
70	1	51,6	51,8
	2	58,3	59,2
	3	64,2	65,4
	4	73,7	74,8
	5	73,9	74,4
80	1	56,4	60,3
	2	60,2	64,2
	3	66,7	65,8
	4	70,3	71,2
	5	67,9	69,7

Sintez qilingan metil antratsen-9-karboksilat IQ-spektrida 3059.48-3029.60 cm^{-1} sohada aromarik halqadagi (C-H) guruhiga xos assimetrik valent tebranishlar, 2948,49 cm^{-1} sohada molekuladagi (O-CH₃ guruhdagi C-H) guruhiga hos assimetrik kuchli valent tebranishlarni, 2841,78-2991,18 cm^{-1} sohada esa molekuladagi (O-CH₃ guruhdagi C-H) guruhga mos simmetrik kuchsiz valent tebranishlarni. 1723,39 cm^{-1} sohada (C=O) karbonil guruhi xos valent yutilish signallari, 1599,60-1548,38 cm^{-1} aromatik halqadagi (C-C) guruhiga mos valent tebranishlar, 1450,20-1433,13 cm^{-1}

dagi yutilish chiziqlari molekuladagi (C-H) guruhiga hos defarmatsion valent tebranishlar. 1313,60-1275,19 cm^{-1} murakkab efirlarga xos (C-O) valent tebranishlari kuzatildi.


metil antratsen-9-karboksilat ^1H -YaMR spektri olindi va tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Metil antratsen-9 karboksilatning ^1H -YaMR spektri.

^1H -YaMR spektri tahlili: 8.54 (t, $J = 2.1$ Hz, 1H) 10- vodorod protoni, 8.05 – 8.01 (d, 4H), 1-, 8- va 4-, 5- vodorod protonlari, 7.54 (m, $J = 7.4, 1.3$ Hz, 2H) 2- va 7- vodorod protonlari, 7.47 (m, 2H) 3- va 6- vodorod protonlari, 4.09 (s, 3H) COOCH_3 metil guruhi vodorod protonlariga xos signallar kuzatildi.

Tar-mahsulotdan ajratib olingan antratsen va qo‘rg‘oshin (IV)- atsetat ishtrokida antratsen-9-il atsetat sintez qilindi. Antratsen bilan $(\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_4)$ reaksiya jarayonlari o‘rganildi. Erituvchi sifatida sirka kislota va CH_3CN ishlatildi. Harorat 60-80 $^\circ\text{C}$ da 4 soat davomida jarayon olib borildi (6-jadval). Jarayon uchun turli ta’sirlar o‘rganildi.



Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harorat 50 $^\circ\text{C}$ dan 70 $^\circ\text{C}$ gacha oshirilganda Antratsen-9-il atsetat 14,5 %dan 62,25 %gacha ortadi. Harorat 80 $^\circ\text{C}$ dan ortishi mahsulot unumiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Antratsen 9-il atsetat unumiga
harorat va reaksiya davomiyligining ta'siri**

Harorat °C	Vaqt, soat	Antratsen -9-il atsetat unumi, %
50	2	-
	3	1,7
	4	6,4
	5	14,5
60	2	4,1
	3	13,4
	4	27,2
	5	59
70	2	19
	3	39,2
	4	65,25
	5	60,1
80	2	18,5
	3	41,3
	4	58,7
	5	56,2

Antratsen-9-il atsetat sinteziga erituvchilar tabiati o'rganilganda eng maqbul erituvchi sifatida atsetonitril va sirka kislota aralshmasi ekanligi aniqlandi. Reaksiya jarayonida 3 xil erituvchidan foydalanildi va natijalar (7-jadval) quyida keltirildi.

7-Jadval

Erituvchilar	Qutbliligi 25°C (dielektrik doimiysi, e)	Mahsulot unumi %
DMSO	47,2	48,6
DMF	36,7	60,5
CH ₃ CN va CH ₃ COOH 1:1	36,6	65,25

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki antratsen-9-il atsetat sintezi uchun eng maqbul erituvchi CH₃CN ekanligi aniqlandi. Buni shunday tushintirish mumkinki, CH₃CN ga qaraganda DMSO va DMF qutblilik darajasi yuqori ekanligi bilan tavsiflash mumkin. DMSO va DMF reaksiya jarayonida qo'rg'oshin tetraatsetat bilan reaksiyaga kirishish ehtimoli yuqori ekanligi sababli, natijasida oraliq mahsulotlarni hosil bo'lishi, reaksiya davomiyligi ortishi bilan tushintiriladi.

Sintez qilingan antratsen-9-il atsetat efiri IQ spektri olinib tahlil qilindi. 3076,18-3051,25 sm⁻¹ sohadagi assimetrik valent tebranishlar aromarik halqadagi (C-H) guruhiga hosdir, 2946,32 sm⁻¹ sohada molekuladagi (O-CH₃ guruhdagi C-H) guruhga mos simmetrik zaif valent tebranishlar, 1766,45 sm⁻¹ da (C=O) karbonil guruhi xos valent tebranishli yutilish signallar, 1596,36 sm⁻¹ aromatik halqaga hos (C-C) guruhiga mos valent tebranishlar, 1496,81-1476,73 sm⁻¹ dagi yutilish

chiziqlari molekuladagi (C-H) guruhiga hos defarmatsion valent tebranishlar, 1371,36 cm^{-1} murakkab efirlarga xos (C-O) valent tebranishlari kuzatildi.

Dissertatsiyaning “**Anratsen karbon kislota efirlarini sintezi jarayonini kvant-kimyoviy hisoblashlari, matematik modellashtirish, matematik qayta ishlash**” to‘rtinchi bobida sinez qilingan anratsen karbon kislota efirlari kvant-kimyoviy hisoblash ishlari, matematik modellashtirish, matematik qayta ishlash hisob-kitoblari olib borilib jaronlarni nazariy jihatdan isbotlandi.

Dissertatsiyaning “**Anratsen karbon kislota efirlarini qo‘llanishi va olish texnologiyalari**” beshinchi bobida sintez qilingan anratsen karbon kislota efirlarini qishloq xo‘jaligida qo‘llanishi, olish texnologiya, material balansi va iqtisodiy samaradorligi o‘rganildi.

Sintez qilingan efirlar Namangan viloyatining Norin tumanidagi “Norin klaster don” MCHJ nomli don saqlash ombori hamda Chortoq tumanidagi “Max Izmailov” MCHJ nomli Tegirmon-yorma mahsulotlari ishlab chiqarish omborida sinovdan o‘tkazildi.

Dastlab tajriba antasen karbon kislota efirlarini 0,1 mg/ml, song‘ra 0,05-0,15 mg/ml konsentratsiyali ish eritmasi bilan don saqlanadigan omborlarda dizenfeksiya ishlari olib borildi (8-, 9-jadvallar).

8-Jadval

Anratsen hosilalarining 0,1 mg/ml ombor uzunburuniga qarshi samaradorligi (“Norin klaster don” MCHJ)


№	Sinov variant-lari	Ishchi eritma konsentratsiyasi, mg/ml	Nobud bo‘lishi, 10 m ² /dona			Biologik samaradorlik, %			
			ishlov berishdan avval	Ishlov berishdan so‘ng			3 sutka	5 sutka	10 sutka
				3 sutka da	5 sutka da	10 sutka da			
1	2-AnKME	0,1	30	24	27	28	83	90	93
2	2-AnKEE	0,1	30	10	15	16	33	50	53
3	2-AnKIPE	0,1	30	18	20	24	60	66	80
4	2-AnKIBE	0,1	30	10	15	18	33	50	60
5	2-AnKIAE	0,1	30	8	12	13	26	40	43
6	9-AnKME	0,1	30	25	27	27	87	90	90
7	9-AnKEE	0,1	30	8	13	15	26	40	50
8	9-AnKIPE	0,1	30	19	21	24	63	70	80
9	9-AnKIBE	0,1	30	11	15	19	36	50	63
10	9-AnKIAE	0,1	30	7	10	13	23	33	43
11	An-9-ilA	0,1	30	22	24	26	73	80	87
12	2-AnK	0,1	30	8	9	12	27	30	40
13	9-AnK	0,1	30	8	10	13	27	33	43

**Anratsen hosilalarining 0,01; 0,03; 0,05; va 0,15 mg/ml konsentratsiyali eritmalarining ombor uzunburuniga qarshi samaradorligi
("Max Izmailov" MCHJ)**

Sinov variantlari	Ishchi eritma konsentratsiyasi mg/ml	Nobud bo'lishi, 10 m ² /dona				Samaradorlik, %		
		Ishlov berishdan avval	Ishlov berishdan so'ng			3 sutka da	5 sutka da	10 sutka da
			3 sutka da	5 sutka da	10 sutka da			
2-AnKME	0,01	30	17	21	24	63	70	80
2-AnKME	0,03	30	20	22	25	63	73	83
2-AnKME	0,05	30	24	26	28	80	87	93
2-AnKME	0,15	30	26	28	28	87	93	93
9-AnKME	0,01	30	19	21	24	63	70	80
9-AnKME	0,03	30	22	24	26	73	80	87
9-AnKME	0,05	30	24	26	27	80	87	90
9-AnKME	0,15	30	27	27	28	90	90	93
9-An-ilA	0,01	30	16	18	21	53	60	70
9-An-ilA	0,03	30	18	21	23	60	70	77
9-An-ilA	0,05	30	20	23	25	67	77	83
9-An-ilA	0,15	30	23	26	27	77	87	90
Karate	0,01	30	23	29	29	77	97	97
Sipermetrin	0,01	30	22	29	29	73	97	97

Anratsen karbon kislota efirlarining yuqori natija bergan hosilalarini 0,1; 0,01; 0,03; 0,05; va 0,15 mg/ml konsentratsiyalari qo'llanilganda 3-10 sutkalik ta'sirdan so'ng 23 %dan 93 %gacha ombor uzunburuniga qarshi biologik samaradorlik samara berishi aniqlandi. Avvaldan qo'llanilib kelinayotgan Karate va Sipermetrin preparatlarining 0,01 mg/ml konsentratsiyada olingan ishchi eritmalarida zararkunandalarning nobud bo'lishi 97 %ni tashkil etdi. Olingan tahlil natijalari import hisobiga keltirilgan Karate va Sipermetrin preparatlari xossalari bilan o'xshashligi aniqlandi.

Tar-mahsuloti asosida anratsen-9-il atsetat efiri olish texnologik sxemasi uchta liniyadan iborat bo'lib, bu liniyalar davriy ishlaydi va quyidagicha tavsiflanadi. 3-rasmda anratsen fraksiyasidan anratsen-9-il atsetat ishlab chiqarish texnologiyasi sxemasi berilgan. Dastlab 1-liniyada ikkilamchi mahsulot tar-mahsulotdan anratsen fraksiyasini ajratib olish uchun RK (3) da fraksiyalanadi va (4)da yig'iladi. Olingan anratsen fraksiyasi eritish bo'limi (4) ga yuboriladi. Eritish bo'limiga benzol (7) yuboriladi. Benzolda erimagan anratsen oksidlash reaktor (12)ga yuboriladi. Reaktorga sirka kislota (9), qo'rg'oshin (IV)- atsetat (13) va CH₃CN (14) yuboriladi. Reaktorda oksidlash jarayoni harorat 70°C da, 4 soat davomida olib boriladi. Hosil bo'lgan mahsulot kristallizator (16)ga yuboriladi. Bu yerda suv (17) bilan yuviladi va qoldiq aralashtirish bo'limi (20)ga o'tkaziladi. Bu yerda dietil efiri (18) bilan aralashtirilib haydash kolonnasi (23)ga o'tkaziladi. Haydash kolonnasining yuqori qismidan dietil efiri ajratib olinadi (26) va qayta rayonga yuboriladi (18). Atsetilen-9-il atsetat esa alohida idish (27)da ajratib olinadi.



3-rasm. Tar-mahsuloti asosida Antratsen 9-il atsetat olish texnologik sxemasi.

1 – tar-mahsulot sig‘imi; 2 – lenta; 3 – distillash kolonnasi; 4 – antratsen fraksiyasi uchun sig‘im; 5 – antratsen gomologlari fraksiyasi uchun sig‘im; 6,11,15,19,22,25 – nasos; 7 – eritish bo‘limi; 8 – benzol uchun sig‘im; 9 – sirka kislota uchun sig‘im; 10 – fenantren uchun idish; 12 – reaktor; 13 – qo‘rg‘oshin (IV)- atsetat uchun sig‘im; 14 – CH_3CN uchun sig‘im; 16 – kristallizator; 17 – suv uchun sig‘im; 18, 24, – dietil efiri uchun sig‘im; 20 – aralashtirish bo‘limi; 21 – chiqindi uchun sig‘im; 23 – haydash kolonnasi; 26 – qo‘shimcha mahsulotlar uchun sig‘im; 27 – mahsulot uchun sig‘im.

1000 kg antratsen-9-il atsetat ishlab chiqarish uchun xomashyo, materiallar sarfi va material balans hisoblab chiqildi, natijalar 10-jadvalda keltirilgan.

10-Jadval

1000 kg antratsen-9-il atsetat ishlab chiqarish material balans

Kirim			Chiqim		
Xomashyo	Massasi, kg	Massa, %	Mahsulot	Massasi, kg	Massa, %
Tar-mahsuloti	6530,617	42,72	Ikkilamchi mahsulotlar	5374,698	35,16
Qo'rg'oshin (IV) atsetat	2466,808	16,12	Antratsen-9-il atsetat	1000	6,54
Sirka kislota	5134,470	33,58	Qo'rg'oshin (II) atsetat	1042,372	6,82
CH ₃ CN	1155,525	7,58	Sirka kislota	5388,707	35,25
			CH ₃ CN	1155,525	7,56
			Chiqindilar	1326,118	8,67
Jami:	15287,42	100	Jami:	15287,42	100

100 kg antratsen-9-il atsetat ishlab chiqarish uchun iqtisodiy hisoblab chiqildi, natijalar 11-jadvalda keltirilgan.

11-Jadval

Xomashyo va boshqa xarajatlar	O'lchov birligi	Iste'mol darajasi	Narxi, so'm	100 kg mahsulot uchun, so'm
Xomashyo va materiallar:				
Tar-mahsuloti	kg	653,0617	1500	979592,5
Qo'rg'oshin (IV) atsetat	kg	246,6808	47443	1170327,7
Sirka kislota	kg	513,4470	15384	4364299,5
CH ₃ CN	kg	115,5525	35000	4044337,5
Jami				21091506,7
Yoqilg'i – energetika xarajatlari				
Suv	m ³	20	1500	30000
Elektr energiya	kW/soat	150	1000	150000
Jami				180000
Boshqa xarajatlar (umumiy xarajatning 30 % miqdorida)				6332852
100 kg antratsen-9-il atsetatning tannarxi, so'm				27.604058.7

100 kg antratsen-9-il atsetatning tannarxi 27.60458.7 so'mni tashkil etadi.
 100 m² maydonni zarrarsizlantish uchun 10 l eritma sarflanadi.
 10 l antratsen-9-il atsetat eritma tayyorlash uchun 414 so'mlik mahsulot sarflanadi.

10 l karate eritmasini tayyorlash uchun 10 000 so'm sarflanadi.

10 l sipermetrin eritmasini tayyorlash uchun 5000 so'm sarflanadi.

XULOSA

1. “Uz-Kor Gaz Chemical” QK MCHJ ikkilamchi tar-mahsulotining qaynash harorat 335-360 °C dagi fraksiyasidan 94-95 % tozalikda antratsen va uning hosilalarini erituvchilarda erish xususiyatlariga ko‘ra samarali ajratib olish ilmiy asoslandi.

2. Antratsen va qo‘rg‘oshin (IV)- atsetat harorat 70 °C da, reaksiya davomiyligi 4 soat ishrokida antratsen-9-il atsetat sintezi amalga oshirildi, reaksiya unumiga erituvchi sifatida CH₃CN va CH₃COOH 1:1 nisbati eng yaxshi variant ekanligi amaliy isbotlandi.

3. Tar-mahsulotidan ajratib olingan 2- va 9-metilantratsen hosilalari harorat 120 °C da, reaksiya davomiyligi 1,5 soat, havo kislorodi ishtrokida, 30 %li HNO₃ bilan oksidlanib 2- va 9-antratsen karbon kislotasi sintezi amalga oshirildi, mahsulot unumiga nitrat kislota konsentratsiyasi ta‘siri aniqlandi, jarayonning maqbul sharoitlari topildi.

4. Sintez qilingan antratsen karbon kislotalarini sivush moyidan ajratib olingan alifatik spirtlar bilan harorat 70 °C da eterifikatsiya reaksiyasi o‘tkazilib antratsen karbon kislota efirlari sintez qilindi va harorat ta‘siri aniqlandi.

5. Olingan birikmalarni kvant-kimyoviy hisoblashlari amalga oshirildi, tajriba natijalari matematik qayta ishlandi, zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida sintez qilingan birikmalarning tuzilishi asoslandi.

6. Antratsen karbon kislota efirlari qishloq xo‘jaligida biologik faol modda sifatida ombor uzunburuni *Sitophilus granarius* zararkunandasini 90-93 % nobud qilishi bilan birga, import: karate, sipermetrin preparatlarini mahalliyashtirish imkoni yaratildi.

7. Antratsen-9-il atsetat efirini antratsen va qo‘rg‘oshin (IV)- atsetat asosida olish texnologiyasi ishlab chiqildi, material balansi, ularni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi hisoblandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.12.2019.К.01.03 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

НУРАЛИЕВ ШУХРАТ БАХТИЁРОВИЧ

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ
ВЕЩЕСТВ НА ОСНОВЕ АНТРАЦЕНА И ЕГО ПРОИЗВОДНЫХ**

02.00.14 - Технология органических веществ и материалы на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ ((PhD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/K957

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.ik-kimyo.nuu.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель: **Нурманов Сувонкул Эрханович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Мирхамитова Дилором Худайбердиевна**
доктор химических наук, профессор

Зиёдуллаев Анвар Эгамбердиевич
доктор философии химических наук, доцент

Ведущая организация: **Институт общей и неорганической химии
Академии наук Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 г. в «__» часов на заседании разового научного совета на основе Научного совета DSc.03/30.12.2019.K.01.03 при Национального университета Узбекистана (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (99871) 227-12-24, факс: (99824) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за №__). Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская 4. Тел.: (99871) 227-12-24, факс: (99824) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 г.
(реестр протокол рассылки №_ «__» _____ 2025 г.).

Сманова З.А.
Председатель разового научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор

Кутлимуротова Н.Х.
Учёный секретарь разового научного совета по
присуждению учёных степеней, д.х.н., профессор

А.К. Абдушукуров
Председатель научного семинара
при разовом научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире растет спрос на продукты органического синтеза, такие как олефины: этилен, пропилен, бутен, бутадиен, получаемые пиролизом углеводородов. В этом процессе наряду с олефинами образуются и дополнительные вторичные продукты. В состав вторичных продуктов входят в основном ароматические соединения, являющиеся основой для синтеза биологически активных веществ. Поэтому большое значение имеет производство и модификация биологически активных веществ: лекарственных препаратов, пестицидов и пищевых добавок, на основе вторичных продуктов.

Во всем мире ведутся научные исследования по получению биологически активных препаратов на основе отходного сырья, а также по созданию препаратов с пестицидными свойствами и использованию их в сельском хозяйстве. Следует отметить, что антрацен и его соединения в основном используются для производства таких продуктов как красители и люминесцентные вещества. Однако тот факт, что антрацен и его производные обладают биологически активными свойствами еще раз подтверждает необходимость химической модификации этих соединений. Производные антрацена также широко используются в органическом синтезе благодаря своей универсальной реакционной способности.

Об актуальности процесса свидетельствует и включение в план работ, реализуемых в нашей республике в последние годы, современных методов и технологий синтеза новых видов импортозамещающей химической продукции с использованием вторичных продуктов. В частности, в новой Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы определены задачи «Развития химической и газохимической отраслей, повышения уровня переработки природного газа с получением продукции». При выполнении вышеперечисленных задач важное научное и практическое значение имеет синтез биологически активных веществ и создание технологических схем на основе веществ, выделенных из вторичных продуктов.

Реализуются задачи, определенные в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 10 октября 2022 года №ПП-388 «Об утверждении Целевой программы стратегического развития химической и газохимической промышленности», Указе от 15 июля 2021 года №УП-6262 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы карантина и защиты растений в республике», а также Постановлениях от 13 февраля 2021 года №ПП-4992 «О мерах по дальнейшему реформированию и финансовому оздоровлению предприятий химической промышленности, развитию производства химической продукции с высокой добавленной стоимостью» и от 17 января 2018 года №ПП-3479 «О мерах по стабильному обеспечению отраслей экономики страны востребованными видами продукции и сырья» и других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятельности. Результаты данного диссертационного исследования в определенной степени послужат улучшению.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии в республике. Данное исследование проводилось в соответствии с приоритетом развития науки и технологий республики VII «Химическая технология и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. За рубежом такие ученые как С.Н. Лакеев, А.Б. Раков, М.А. Лебедова, Ф.М. Садыгов, А.Д. Беренс в своих научных работах по анализу состава и эффективному использованию достаточно полно изучили состав вторичных продуктов процесса пиролиза. Научные труды З.Ю. Маггеррамова, Ф.М. Садыгов, И.А. Гусейнов, Г.Н. Гаджиев, А.Б. Раков и Н.И. Гайдарли посвящены методам выделения антрацена, который в больших количествах содержится в дегтярных продуктах. Исследования этих ученых сосредоточены на переработке вторичного сырья, получаемого в процессе пиролиза.

